

# СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Тўхтасинов Илҳом**  
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**  
**Тухтасинов Илхом**  
д.п.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**  
**Tuhtasinov Ilhom**  
DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўғли**  
ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммамед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддиқова Ирода**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**  
ф.ф.д. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
масбул котиб, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Узбекистан)

**Якуб Умар оглы**  
д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Миннуллин Ким**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Керимов Исмаил**  
д.ф.н., профессор (Россия)

**Джураев Маматкул**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Куренов Рахыммамед**  
к.ф.н. (Туркменистан)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Мирзаев Ибодулло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Балтабоев Ҳамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Дустмухаммедов Хуршид**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Лиходзиевский А.С.**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Сиддиқова Ирода**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Шиукашвили Тамар**  
д.ф.н. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
отв. секретарь, PhD, доцент  
(Узбекистан)

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**  
academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**  
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**  
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**  
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**  
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**  
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**  
University of Michigan (USA)

**Umarchodjaev Mukhtar**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammedov Khurshid**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**  
Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Turobov Bekpulat**  
PhD Ass. prof. Senior Secretary  
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000


<b>1. Nurmatova Zarifa Abdiraup qizi</b> IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
<b>2. O‘tamuradova Malohat</b> ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
<b>3. Петросьянц Эрнст Ашотович</b> ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
<b>4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi</b> O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
<b>5. Gulamova Malika Yakubovna</b> O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDAH USULLARI.....	27
<b>6. Achilova Ozoda Farxodovna</b> YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
<b>7. Nematillayevna Zubaydova</b> PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
<b>8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна</b> ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
<b>9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi</b> SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
<b>10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna</b> MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
<b>11. Malika Solieva</b> PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
<b>12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna</b> “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
<b>13. Shamuradova Naima Muxtarovna</b> DISCURSIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
<b>14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li</b> STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA‘SIRI (“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida).....	70
<b>15. Tashkulova Zarnigor</b> “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI..	74
<b>16. Jo‘raqulova Mushtariy</b> O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	79
<b>17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna</b> TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

<b>18. Зулфанова Нигина Нуритдиновна</b> СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
<b>19. Turakulova Sitora Fazlidinovna</b> JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
<b>20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmuratovna</b> "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
<b>21. Erkinova Ruxshona O‘tkirovna, Kurbonova Gulnoza Irkinovna</b> YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
<b>22. Qayimova Maftuna Tursunovna</b> OILAVIY MUHITDA QIZLARINING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O‘ZBEKISTONDA).....	114
<b>23. Хасанова Мавлюда Батыралиевна</b> ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
<b>24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna</b> “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
<b>25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova</b> PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
<b>26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna</b> YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O‘LIMNING YANGI IFODASI.....	139
<b>27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich</b> TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
<b>28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi</b> SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE‘RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
<b>29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna</b> DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA‘MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
<b>30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna</b> O‘ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
<b>31. Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich</b> ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
<b>32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna</b> MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOIYILLARI.....	170
<b>33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna</b> AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o'g'li**Samarqand davlat chet tillar instituti assistent-o'qituvchisi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,  
abubakirziyo95@gmail.com**STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA'SIRI**  
**(“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida)** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18734011>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada fransuz yozuvchisi Stendal ijodi “Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlarining badiiy tahlil qilish orqali undagi realizm va romantizmning mavjud antitezalari bayon qilingan. Yozuvchining badiiy mahorati orqali tasvirlangan suyet holatlari mavjud real kongnitiv olam bilan solishtirilgan va obrazlarning shakllantilishida psixologik yondashuvlar tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar.** realistik tasvir, romantik ruh, shaxsiy ambitsiya, psixologik roman, kontrast xususiyat, obrazli epitet, stereotip obraz.

**Зиядуллаев Абубакир Ибодуллаевич**

Ассистент-преподаватель

Самаркандского государственного института иностранных языков,  
доктор философии (PhD) по филологическим наукам,  
e-mail: abubakirziyo95@gmail.com**ВЛИЯНИЕ РОМАНТИЗМА И РЕАЛИЗМА В ТВОРЧЕСТВЕ СТЕНДАЛЯ**  
**(На примере произведений «Красное и чёрное» и «Пармская обитель»)****АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматривается творчество французского писателя Стендаля через художественный анализ его произведений «Красное и чёрное» и «Пармская обитель». В исследовании раскрываются существующие антитезы реализма и романтизма в указанных романах. Сюжетные ситуации, изображённые посредством художественного мастерства автора, сопоставляются с реальной когнитивной действительностью, а также анализируются психологические подходы в формировании образов.

**Ключевые слова:** реалистическое изображение, романтический дух, личные амбиции, психологический роман, контрастность, образный эпитет, стереотипный образ.

**Ziyadullayev Abubakir**Assistant Lecturer at Samarkand State Institute of Foreign Languages,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences,  
E-mail: abubakirziyo95@gmail.com

## THE INFLUENCE OF ROMANTICISM AND REALISM IN STENDHAL'S WORKS (A Study Based on "The Red and the Black" and "The Charterhouse of Parma")

### ABSTRACT

This article explores the works of the French writer Stendhal through a literary analysis of his novels *The Red and the Black* and *The Charterhouse of Parma*. The study highlights the existing antitheses between realism and romanticism in these works. The narrative situations depicted through the author's artistic mastery are compared with the real cognitive world, and psychological approaches in the formation of characters are analyzed.

**Keywords:** realistic depiction, romantic spirit, personal ambition, psychological novel, contrast, figurative epithet, stereotypical image.

Fransuz adabiyoti tarixida XIX asr eng muhim davrlardan biridir. Bu davr romantizmning gullab-yashnashi va realizmning shakllanishi bilan ajralib turadi. Ana shunday o'tish davrida ijod qilgan yozuvchilardan biri Stendal (1783–1842) bo'lib, u fransuz roman san'atining yirik namoyandasi hisoblanadi. Asl ismi Mari-Anri Bel (Marie-Henri Beyle) bo'lgan yozuvchi o'ziga "Stendhal" taxallusini tanlagan va shu nom bilan mashhur bo'lgan. Uning ijodi nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham katta ahamiyat kasb etib, fransuz va jahon adabiyoti rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Stendal o'z asarlarida inson ruhiyati, ichki dunyosi, orzu va intilishlarini chuqur tahlil qilishga alohida e'tibor berdi. Uning fikricha, adabiyot hayotning o'zini aks ettirishi lozim. Shu bois, u ko'proq realistik tasvir uslubiga yaqin bo'lgan, lekin asarlarida romantik ruh ham sezilib turadi. Stendal o'z davrida "adabiyot — bu oynaga o'xshaydi" degan mashhur qarashni ilgari surgan, ya'ni yozuvchi voqelikni qanday bo'lsa, shunday ko'rsatishi zarur, deb hisoblagan. Stendal ijodida ikki roman alohida ahamiyat kasb etadi: "Qizil va qora" (*Le Rouge et le Noir*, 1830) va "Parma monastiri" (*La Chartreuse de Parme*, 1839).

"Qizil va qora" asarida sevgi, orzu, jamiyatdagi tabaqaviy to'siqlar va shaxsiy ambitsiyalar kuchli tasvirlanadi. Roman nafaqat fransuz adabiyotida, balki butun jahon adabiyotida psixologik roman janrining eng mashhur asarlaridan biri hisoblanadi.

Entre ces deux femmes dont un trouble extrême couvrait les joues de rougeur et d'embarras, la pâleur hautaine, l'air sombre et décidé de Julien formait un étrange contraste. Il méprisait ces femmes, et tous les sentiments tendres. Ma'nosi: Yuzlarini qizillik va noqulaylikdan qoplagan chuqur hayajon ichida qolgan bu ikki ayol orasida, Julyenning mag'rur oqarib ketgan yuzi, g'amgin va qat'iy qiyofasi g'alati bir ziddlikni hosil qilardi. U bu ayollardan ham, har qanday nozik tuyg'ulardan ham nafratlanardi. Bu yerda "Entre ces deux femmes dont un trouble extrême couvrait les joues de rougeur et d'embarras" – ikki ayolning yuzlari qizarib, uyalish va hayajon aralash hislar bilan qoplanganligi ayollarning ichki kechinmalari tashqi belgilar – qizarish, noqulaylik orqali ifodalangan. Romanda ko'pincha psixologik holatni bevosita emas, balki tashqi tasvir orqali berish an'anasi mavjud. "la pâleur hautaine, l'air sombre et décidé de Julien" – Julyen esa ularga qarshi mutlaqo teskari kayfiyatdagi holati yuzi oqarib, ammo mag'rur; qiyofasi g'amgin va qat'iy ifodalangan.

Bu tasvir uning ruhiy sovuqligi, qaroridan qaytmasligi va hissiyotlardan yiroqligini ko'rsatadi va bir sahnada ikki xil psixologik holat to'qnashuvi tasvirlangan: biri – hayajon va samimiylilik, ikkinchisi – sovuq mag'rurlik.

"Il méprisait ces femmes, et tous les sentiments tendres" jumlasini orqali Julyen xarakterining asosiy jihatlari ochilgan: u o'zini his-tuyg'ulardan ustun qo'yadi, mehr-muhabbatni zaiflik deb biladi. Bu bilan yozuvchi qahramonning ichki ma'naviy qarama-qarshiligini ko'rsatadi: jamiyatda hissiyotlar qadrlansa ham, Julyen ulardan yuz o'giradi.

Bu asar orqali Stendal o'z davrining jamiyatini "oyna" kabi ko'rsatgan.

"Qizil va qora" romani XIX asr fransuz jamiyatidagi ijtimoiy tabaqalar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarni ochib beradi. Asardagi asosiy qahramon Julyen Sorel — iqtidorli, lekin past tabaqadan chiqqan yigit bo'lib, u orzu va ambitsiyalari yo'lida kurashadi. Roman orqali Stendal fransuz jamiyatidagi adolatsizlik, ikkiyuzlamachilik va tabaqaviy cheklovlarni fosh qiladi.

“Parma monastiri” romanida esa yozuvchi italiyalik yosh yigit Fabrigo del Dongoning taqdirini tasvirlaydi. Bu asarda siyosat, sevgi va insoniy ehtiroslar muhim o‘rin egallaydi. Stendal bu romanda ham realistik ruhiy tahlillarni kuchli badiiy tasvir bilan uyg‘unlashtirgan.

Voir arriver la mort n’était rien, entouré d’âmes héroïques et tendres, de nobles amis qui vous serrent la main au moment du dernier soupir. Ma’nosi : O‘limning yaqinlashayotganini ko‘rish hech narsa emas edi — agar seni oxirgi nafas lahzasida qo‘lingni mahkam siqib turgan, jasur va mehribon qalbli, oliyjanob do‘stlar qurshab olgan bo‘lsa. Bu yerda o‘lim oddiy, qo‘rqinchli emas, balki tabiiy hodisa sifatida ko‘rsatiladi. Muallif o‘limni yengilroq, hatto ardoqli voqea sifatida talqin qilmoqda. “entouré d’âmes héroïques et tendres” – jasur va mehribon qalblar qurshovida. O‘lim yolg‘izlik emas, balki fidokor, mard, ammo shu bilan birga samimiy qalblar yonida kechmoqda. Bu ruhiy sokinlik va dalda manzarasini beradi. “de nobles amis qui vous serrent la main au moment du dernier soupir” – oxirgi nafasda qo‘lingizni mahkam ushlab turgan oliyjanob do‘stlar. Bu tasvir o‘limni dahshatli yakun sifatida emas, balki insoniy birdamlik, do‘stlik va mehr-muhabbat bilan yo‘g‘rilgan yakun sifatida ochib beradi.

Odatda o‘lim – qo‘rquv, iztirob manbai. Lekin bu jumlada o‘lim “hech narsa” deb baholanadi, ya’ni unga qarama-qarshi yengillik va osoyishtalik ruhi beriladi. Bu yerda badiiy talqinning kontrast xususiyatlari ko‘zga tashlanadi.

“âmes héroïques et tendres” (jasur va mehribon qalblar) – ikki qarama-qarshi sifat (mardlik va noziklik) birlashtirilib, do‘stlarning ideal timsoli chizilgan bo‘lib obrazli epitetni gavdalandirish uchun xizmat qilgan. “qui vous serrent la main” – jismoniy aloqa (qo‘l siqish) orqali samimiylik, ruhiy yaqinlik berilgan. Bu hissiy detallash – o‘quvchi tasavvurida kuchli obraz yaratadi.

“Inson ruhiyati juda keng olam bo‘lib, undagi hissiyot va tuyg‘ular ikki xil shaklda o‘zini namoyon etadi: birinchisi anglangan, ma’lum mantiqqa bo‘ysungan, tashqi dunyoga nisbatan o‘zining qat’iy xulosa va yo‘nalishiga ega tuyg‘ular. Bu tuyg‘u insonning jamiyatga, odamlarga, atrof-muhitga munosabati va bular haqidagi ma’lum tushunchaga ega bo‘lgan qarashlarni ifodalaydi; bularning barchasini ong sintez qilib beradi, ya’ni ong bevosita ishtirok etadi. Ikkinchisi, ong osti hislari, onga qalqib chiqmagan, lekin inson ruhiyatida doimo mavjud, tashqi dunyo bilan tinimsiz aloqa qilib turuvchi hislar.”

Stendal ijodining eng muhim jihatlaridan biri — bu psixologizm. U inson qalbini tahlil qilishda chuqur kuzatuvchanlik va nozik did bilan ish ko‘rgan. Uning qahramonlari oddiy stereotip obrazlar emas, balki murakkab ruhiy dunyoga ega shaxslar sifatida gavdalanadi. Stendal bu jihati bilan keyingi realistik va psixologik adabiyot vakillariga, jumladan, Balzak, Flober va Dostoyevskiy kabi yozuvchilarga katta ta’sir ko‘rsatdi.

“Shu paytgacha mavjud, xususan, M.Baxtin so‘z yuritgan xronotopga doir barcha tushunchalar (hatto u ilohiy aspektda talqin etilgan bo‘lsa ham) ayni xronotopdan keyin va ma’lum ma’noda chegaralangani ayon bo‘ladi”

Stendal romantizm davrida ijod qilgan bo‘lsa-da, u asosan realizmga yaqin turdi. Uning asarlarida romantik ehtiroslar, sevgi va orzu-intilishlar tasvirlansa-da, bu obrazlar har doim reallikka tayanadi. Shu sababli, Stendal adabiyot tarixida romantizm va realizm oraliq‘idagi yozuvchi sifatida baholanadi. Uning ijodi keyinchalik Balzak, Flober, Zola singari yozuvchilar tomonidan davom ettirildi.

Stendalning hayoti davomida uning ijodi keng tan olinmadi, aksincha, ko‘plab tanqidchilarning e’tiboridan chetda qoldi. Faqat yozuvchi vafotidan keyin uning romanlari qadrlanib, XIX asr fransuz adabiyotidagi eng muhim yutuqlar sifatida baholandi. Bugungi kunda esa Stendal ijodi nafaqat Fransiyada, balki jahon adabiyotida ham o‘rganilmoqda. Uning romanlari, xususan, “Qizil va qora” psixologik roman janrining klassik namunasi hisoblanadi.

Stendal ijodi o‘z davrida keng e’tirof etilmagan bo‘lsa-da, keyinchalik fransuz realizmining poydevorini yaratgan buyuk yozuvchilar qatoridan o‘rin oldi. U o‘z romanlarida insonning ichki olami, ijtimoiy muhit bilan kurashi va jamiyatdagi adolatsizlikni yorqin badiiy vositalar bilan ifoda etdi. Shu sababli, Stendal ijodi nafaqat XIX asr fransuz adabiyotining yutug‘i, balki butun jahon adabiyoti xazinasining qimmatli qismidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Gusdorf G. Le Romantisme. – Paris: Payot, 1993. – 900 p.
2. Le Nouveau Petit Robert. Dictionnaire de la langue française. – Paris: Hardcover, 2003. – 2174 p.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akadernashr, 2018. – 480 b.
4. Stendhal. La Chartreuse de Parme. – Paris: La Bibliothèque électronique du Québec, 1967. – 1038 p.
5. Stendhal. Le Rouge et le Noir. – Paris: La Bibliothèque électronique du Québec, 1927. – 1086 p.
6. Жўракулов У. Адабий-тарихий жараён: Ижодкор. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Гафур Ғулом нашриёти, 2015. – 355 б.
7. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.
8. Қаршибаева У.Д. Француз романтизм прозасининг поэтик хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дисс. автореферати. – Тошкент: Академия ноширлик маркази, 2016. – 81 б.
9. Қуронон Д., Мамажонон З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 408 б.
10. Тўраева Б. Замонавий романчиликда хронотоп поэтикасининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореферати. – Бухоро: Дурдона, 2022. – 71 б.
11. Эшонқулов Ж. Руҳий таҳлил хусусида. – Тошкент, 1997. – 112 б.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА  
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадqiqот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000